



THE ROLE OF PR IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF POLITICAL PARTIES AS A CONSTITUTIONAL LEGAL INSTITUTION

Baxitova Jasmina Arman qizi

Student of Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11439126>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2024

Accepted: 30th May 2024

Online: 31th May 2024

KEYWORDS

Political party, legal institution, election, public relations (PR), information service.

ABSTRACT

This article is about the principles of formation and development of political parties as a constitutional legal institution in Uzbekistan. Also, the role of public relations and information services was discussed in this process.

SIYOSIY PARTIYALARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY INSTITUTI SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI PR-NING ROLI

Baxitova Jasmina Arman qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti studenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11439126>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2024

Accepted: 30th May 2024

Online: 31th May 2024

KEYWORDS

Siyosiy partiya, huquqiy institut, saylov, jamoatchilik bilan aloqalar (PR), axborot xizmati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekistonda siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy huquqiy instituti sifatida shakllanishi va rivojlanish tamoyillari haqida so'z borada. Shuningdek, bu jarayonda jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmatining roli xususida to'xtalgan.

Mavzuni yoritishdan oldin PR tushunchasiga to'xtalib o'tsak. PR (o'qilishi — piar) — inglizcha "public „ relations“, ya'ni jamoatchilik bilan aloqalar ma'nosini anglatadi.

PR (Jamoatchilik bilan aloqalar) — Tashkilot yoki shaxs va ularning auditoriyasi yoki jamoatchilik fikrini yaxshiroq tushunish va ijobiy jamoatchilik fikrini yaratish maqsadida kanallar va axborot oqimini boshqarish san'ati va fani.

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis ixtisoslashtirilgan aloqa rejasini tuzadi va ijobiy brend imidjini va maqsadli auditoriya bilan mustahkam aloqani yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun ommaviy axborot vositalari va boshqa to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita vositalardan foydalanadi. Oddiy qilib aytganda, jamoatchilik bilan aloqalar — bu tashkilot va uning brendlari obro'sini saqlab qolish uchun tashkilotga tegishli ma'lumotlarni ommaga



chiqarish va tarqatishni boshqarishning strategik jarayoni. Ushbu jarayon quyidagilarga qaratilgan bo'ladi:

Qanday axborotlar e'lon qilinishi kerakligi,

Axborotlarni qanday tuzish kerakligi,

Axborotlar qanday taqdim qilinishi kerakligi va

Axborotni chiqarish uchun qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kerakligi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish va undan kompaniya ishida foydalanish, jamoatchilikka korxonasiyosati va faoliyatining mohiyatini tushunishga yordam beradigan ma'lumotlarni tarqatishdir PR faoliyatining asosini tashkil etadi.

Bu jarayonda PRning asosiy tamoyillariga amal qilish kerak bo'ladi. Bular:

- kompaniya faoliyatining jamiyatga nisbatan halolligi va haqqoniyligi;
- Tashkilot va jamoatchilik uchun o'zaro manfaatdorlikni ta'minlash;
- Kompaniyaning ishi to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqqligi;
- Ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish, kompaniya haqida materiallarni topshirish jarayonini kuzatish;
- Jamoatchilik bilan muomala qilishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish.

PR faoliyatining uchta asosiy funksiyasi mavjud:

Jamiyatning fikri va xulq-atvorini nazorat qilish funksiyasi nafaqat kompaniya, balki auditoriya manfaatlariga erishish uchun zarurdir. Jamoatchilikning tashkilotga bo'lgan munosabatini kuzatish unga o'z ishiga tuzatishlar kiritish imkonini beradi va shu orqali uning obro'sini oshiradi.

Navbatdagi funksiya esa kompaniya faoliyatidagi tushunmovchilik va ishonchsizlikni aniqlash va nizolarni hal qilish choralarini ishlab chiqish uchun amalga oshiriladi.

Uchinchi funksiya PR faoliyatining asosiy maqsadi bilan rezonanslashadi. Kompaniyaning harakatlari jamoatchilik bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni ta'minlashi yoki bunga hissa qo'shishi taminlanadi

Bundan tashqari, ichki va tashqi PR mos ravishda ajralib turadi.

PR faoliyatining tashqi funksiyasi kompaniyaning jamoatchilik oldida qulay obro'sini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'ladi. Bu ommaviy axborot vositalaridagi salbiy xabarlarini zararsizlantirish va kompaniya faoliyati haqida ijobiy ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat bo'ladi.

PR ning ichki funksiyasi korxonada korporativ madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Xodimlar o'z tashkilotining obro'sini oshirishdan manfaatdor bo'lishi kerak, buning uchun xodimlarning qulay ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratish kerak. Ichki atmosfera odamlarning ishlashiga va shunga mos ravishda kompaniyaning samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yisha ulkan ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning oliy manfaatlariga javob beradigan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishga qodir bo'lgan kushli milliy davlatshilik asoslari yaratildi. Ikki palatali parlament shakllanib samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishda bevosita ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati



institutlarini shakllantirish jarayonlari tobora shuqurlashib bormoqda. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini uzluksiz ravishda takomillashtirish bo'yisha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.¹

O'zbekiston siyosiy tizimi zamonaviy siyosiy munosabatlar shart-sharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg'unlashish sifatlariga to'la ega bo'ldi. Mazkur jarayonning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan ko'ppartiyaviylik tizimi bugungi kunda rivoj topmoqda. Siyosiy partiyalarning islohotlar jarayonidagi, jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi ahamiyati kushayib borayapti. Partiyalar faoliyatining tashkiliyhuquqiy, moliyaviy shart-sharoitlari mustahkamlanmoqda, ularning xalq orasidagi obro'si yuksalib, davlat ahamiyatiga molik qarorlar qabul qilishdagi ta'siri tobora kuchayib bormoqda.

Siyosiy plyuralizm va ko'ppartiyaviylik allaqashon davlatimiz ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu qoidaning Konstitutsiyada mustahkamlanishi siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi vositashi rolini konstitutsiyaviy maqomining mustahkamlanganligini bildiradi.

Siyosiy partiyalarning mavjud bo'lishi va real munosabatlarni aks ettirgan holda faoliyat ko'rsatishi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy garovidir. Partiyalarning demokratiyani shakllantirishdagi bevosita ta'siri ularning jamoat tashkiloti ekanliklaridan kelib chiqadi, ya'ni siyosiy partiya xalq hokimiyatshiligini amalga oshirish maqsadida aholining ijtimoiy fikrini ifodalovshi yirik xalq tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Partiya degani - bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan g'oya uchun, uning jamiyatda ustuvor bo'lishi va ro'yobga shiqishi uchun kurash demakdir. Agar partiya ma'nosini mana shu nuqtai nazardan tuchunar ekanmiz, qansha partiya bo'lsa bo'laversin, ularning faoliyatiga tegishli sharoit yaratib beriladi"

Turli xil partiyalarning mavjud bo'lishi natijasida jamiyatda siyosiy fikr, qarashlarning xilma-xilligi (plyuralizm) vujudga keladi. "Plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi ma'rifiy jamiyatga xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlisha izohlash, tuchunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi".

Siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir o'tkaza oladigan institut sifatidagi o'rnini e'tirof etib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev haqli pavishda quyidagi fikrlarni bildirib o'tadilar: «Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari hokimiyat tizimlarida, avvalo hokimiyatning saylab olinayotgan opganlarida o'rin olish uchun kurashar ekanlar, aniq maqsadlari, harakat dasturlari bo'lishi kepak. Toki bu dasturlarning amalga oshirilishi mamlakatdagi ijobiy o'zgarishlarga barakali ta'sir etsin».

Hozirgi kunda siyosiy partiyalar huquqiy maqomi, ularning siyosiy hayotdagi roli, davlat bilan o'zaro munosabatlarini belgilashda siyosiy partiyalar huquqiy institutsiallashuvining asosiy shakli hisoblangan siyosiy partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning

¹ O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni. T. 2022 y.



zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanishida axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limining roli katta.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni. T. 2022 y.
2. O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlari. T. "Adolat". 2021 y
3. Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. – Т.: Ижод дунёси. 2004.
4. Arziyev F. Pablik rileyshnz – axborot ortidagi manfaat. //Xalq so`zi, 2003, 4 noyabr.
5. Saifnazarov I. Siyosiy partiyalar va davlat boshqaruvi organlari hamkorligi. Fuqarolik jamiyati. 2020 y. 2 son.
6. [PRESS LANGUAGE IS A QUALITY OF LITERARY AND ORAL LANGUAGE SIZE.](#) G Seitnazarova - Конференции, 2020
7. [Relativity of the Genre, Theme, Idea and Image in Artistic Expression.](#) SG Suxanatdinovna.